

**QORAQALPOQ VA O'ZBEK MAQOLLARIDAGI ZONIMLARNING
SEMANTI-USLUBIY XUSUSIYATLARI****Saylaubaeva Bibigul Jen'isbay qizi**

ToshDO'TAU 3-kurs talabasi

+998943285057 bibigulsaylaubaeva@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15788198>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq va o'zbek xalq maqollarida uchraydigan zoonimlarning tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlili berilgan. Maqollar orqali xalq tafakkuridagi tarixiy, ijtimoiy, ma'naviy, mehnat faoliyati bilan bog'liq tasavvurlar, qadriyatlar va obrazlar ochib beriladi. Xususan, ho'kiz, tuya, sigir, qo'chqor, ot kabi hayvonlar timsollarining mazmunli ifodasi va ularning xalq og'zaki ijodidagi o'rni yoritilgan. Tahlil davomida paremiologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari, frazeologik tasvir vositasi sifatidagi funksional qiymati ham ko'rsatib berilgan. Maqolada zoonimlarning timsol xarakteridagi konseptual belgilari, til sohibining milliy-madaniy qarashlari bilan bog'liq semantikasiga doir fikr-mulohazalar bayon qilingan. Frazeologiya, etnolingvistika, folklorshunoslik va madaniyatshunoslik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy qiymati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: paremiologiya, barqaror birikmalar, maqollar, frazeologik birlik, zoonim timsollar, denotativ ma'no, konnotatsiya, til va tafakkur, madaniy meros, etnolingvistika, xalq og'zaki ijodi, konseptual belgi, madaniyat tarixi, mental struktura, ijtimoiy-madaniy faoliyat.

Abstract: This article provides an analysis of zoonyms found in Karakalpak and Uzbek folk proverbs from the point of view of linguistics and cultural studies. The proverbs reveal historical, social, spiritual, and labor-related ideas, values, and images in the folk mind. In particular, the meaningful expression of animal symbols such as ox, camel, cow, ram, and horse and their role in folk oral art are highlighted. During the analysis, the lexical-semantic properties of paremiological units and their functional value as a means of phraseological imagery are also shown. The article presents ideas about the conceptual signs of zoonyms in the symbolic nature, their semantics related to the national-cultural views of the speaker. The scientific-educational, and spiritual value of research conducted in phraseology, ethnolinguistics, folklore, and cultural studies is shown.

Keywords: paremiology, stable compounds, proverbs, phraseological units, zoonymic symbols, denotative meaning, connotation, language and thought, cultural heritage, ethnolinguistics, folk oral culture, conceptual sign, cultural history, mental structure, socio-cultural activity.

Xalq og'zaki ijodi xalqning tafakkuri, tarixiy tajribasi, turmush tarzi va ma'naviy dunyosining jonli aksidir. Shu bois maqollarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, tarix, etnolingvistika kabi sohalar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqollar barqaror birikmalar sifatida yaxlit mazmun tashiydi. Maqollardagi muhim qadriyat belgilari, muloqotlararo kommunikativ funksiyasi, uslubiy-semantik xususiyatlari, madaniy kodlarni ifodalash darajasi o'rganilgan [Dmitriyeva, 1997:37].

Tilshunos A. Nurmonov barqaror birikmalarga ta'rif berib, ularning yaxlit bir tushunchani ifodalashiga e'tibor qaratganlar. Barqaror birikmalarni o'rganuvchi bo'lim paremiologiya deb yuritiladi. Paremiologiya – paremlar haqidagi soha. Ba'zi adabiyotlarda paremiyalar deb yuritilgan. Paremiya lingvistik hodisa hisoblanib, yaxlit, ajralmas

birikmalarning kommunikativ, emotsional-ekspressiv funksiyasi bilan izohlanadi. Maqollar, hikmatli soʻzlar, topishmoqlar, iboralar (hozirgi fan nuqatayi nazaridan frazemalar) barqaror birikmalardir.

Tahlillarimiz davomida barqaror birikmalarning har biri oʻziga xos xususiyatga ega ekanliklarini koʻramiz. Masalan, frazemalarning oʻziga xos jihati ularning lugʻaviy birlik sifatida yaxlit bir tushuncha ifodalashidir. Ayrim frazemalar tahliliga toʻxtalamiz. Masalan, *burni osmonga koʻtarilmoq* frazemasi struktur jihatdan uchta komponentdan tashkil topgan: burun+osmon+koʻtarilmoq. Mazkur leksemalar grammatik shakllar (-i, -ga) orqali birikma hosil qiladi. Ushbu birikma oʻz maʼnosida ham qoʻllanishi, yaʼni *burunni osmonga koʻtarish* (boshni osmonga qarata harakatlantirish) mumkin. Ammo mantiqan barqaror birikma oʻz maʼnosida qoʻllanmaydi. Faqat koʻchma maʼnoda kelib, bitta soʻzga teng tushunchani, yaʼni “kibrli”, “kibor” maʼnolarini anglatadi.

Maqollar barqaror birikma sifatida birdan ortiq komponentdan tashkil topadi. Shu xususiyatiga koʻra frazemalar bilan umumiylik hosil qiladi. Maqollar komponentlari birlashib, yaxlit bitta lugʻaviy birlik sifatida bitta soʻzga teng kelmaydi. Maqollarning barqaror birikma sifatida olinishiga asosiy sabab – maqollardagi maʼno, mazmun yaxlit bir koʻchma maʼno asosida reallashadi. Maqollar koʻchma maʼnoga asoslangan boʻlishidan qatʼiy nazar dastavval oʻzining mantiqiy asosiga ega boʻladi.

Maqollarni oʻz maʼnosida kela olishidan qatʼi nazar koʻchma maʼnoda qoʻllanishi, maʼlum maʼnoda muloqotdagi taʼsirchanlikni taʼminlash uchun xizmat qilishi qayd etilgan.

Maqollarning kelib chiqish tarixi va yuzaga kelish omillari mavjud. Masalan, maqollarning mazmunan boyligi, teranligi shu xalqning tafakkur darajasini belgilaydi. Turkiy xalqlar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ularning bebaho qiymatga ega boʻlgan tafakkur mahsullarini oʻzlashtirib boramiz. Bu tafakkur mahsullari insonlar oʻrtasidagi munosabat, ijtimoiy turmush tarzi, ishlab chiqarish, dehqonchilik, chorvachilik haqida muhim maʼlumotlar beradiki, maqollarni tadqiq qilish asosida ana shu tarixga, xaqimizning oʻtmishi va turmush tarziga, madaniy dunyo qarashiga va munosabatlariga doir muhim maʼlumotlarga ega boʻlish mumkin. Bu jihatdan qoraqalpoq maqollari oʻziga xos qiymatga ega.

Qoraqalpoq maqollari orasida ijtimoiy turmush tarzi haqida maʼlumot beruvchi bir qator barqaror birikmalar keltirilgan. Zoonimlar maqollarda eng faol qoʻllangan timsollardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotlarda zoonimlarning badiiy matnlardagi oʻrni, uslubiy-semantik xususiyatlari tahlil etilgan [Zaripov, 2002]¹.

Masalan:

Jeri qatti bolsa,

Oʻgiz oʻgizden koʻredi / Yeri qattiq boʻlsa, Hoʻkiz hoʻkizdan koʻradi.

Bu maqol hoʻkiz orqali yer haydash jarayoni haqida maʼlumot beradi. Tariximizga bir nazar tashlaydigan boʻlsak, XX asr boshlarigacha boʻlgan dehqonchilikdagi turmush tarzida hoʻkiz qoʻshib yer haydash asosiy texnik taʼminot hisoblangani maʼlum boʻladi. Maqollarda bu jarayon haqida tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni aks ettiruvchi axborot saqlanib qolgan. Oʻzbek xalq maqollari orasida *er-xotin qoʻsh hoʻkiz* deyiladi. *Er-xotin – qoʻsh hoʻkiz* maqolidagi mazmun oʻtmish haqida, xalqning qadriyatleri, turmush darajasi haqida maʼlumotga ega boʻlmagan yoshlarga tushunarsiz boʻlishi mumkin. Er-xotinning qoʻsh hoʻkizga oʻxshatilishi moddiy, iqtisodiy asoslariga ega. Hoʻkizga ishora qilinishi hoʻkiz orqali yer haydash jarayoniga

¹ Zaripov B. Зоонимларнинг бадий санъат ҳосил қилишдаги иштироки (Алишер Навоий асарлари асосида). Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. –Тошкент, 2002.-128 б.

ishora qiladi.

Maqolga asos bo'lgan jarayon badiiy matnlarda ham o'z ifodasini topgan. Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida ho'kizini yo'qotgan bosh qahramon – Qobil bobo nihoyatda tushkun ahvolda qoladi. Chunki u turmush kechirish ashyosidan, nafaqat oilasi va ro'zg'oridagi chorva molidan, balki yer haydash vositasidan ayrilgan edi. Abdulla Qahhor maqol mazmuniga mos tarzda: "Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin" – degan hikmatli so'zni qo'llaydi. Demakki, maqollarning tahlili bizga ana shunday muhim qadriyatlarni, ijtimoiy turmush tarzi va sohasi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. O'zbek tilidagi zoonim komponentli maqollar, zoonimlarning maqollar tarkibidagi timsol sifatidagi funksional xususiyatlari tadqiq etilgan [Tosheva, 2017:15].

Maqollar xalqning munosabatini va bashoratomuz qarashlarini ifodalashga ham xizmat qilib kelgan. Qoraqalpoq xalqi orasida xalqning ana shunday qarashlarini aks ettirgan maqollarda zoonimlar muhim o'rin tutadi. Chunki turkiy xalqlarning kundalik turmush tarzi hayvonlar va chorvachilik bilan bog'liq bo'lgani uchun, shaxslar ko'proq jonzotlarning xususiyatlarini o'zlashtirib, shu asosda o'z fikrlarini ifoda etganlar. Jonzotlar mutafakkirlarning yoki oddiy xalq vakillarining, tafakkur sohiblarining fikrlarini, qarashlarini timsollar orqali ifodalashda bir vosita bo'lgan.

Qoraqalpoq maqollaridan birida quyidagi she'riy maqol berilgan:

Qoshqar bolar qozinin',

Man'laylari do'n' bolar.

Adam bolar jigittin',

Etek-jen'i ken' bolar.

O'zbekcha varianti:

Qo'chqor bo'lar qo'zining,

Manglaylari do'ng bo'lar.

Odam bo'lar yigitning,

Etak- yengi keng bo'lar.

Buni bashoratomuz xalq hikmatlaridan biri deb hisoblash mumkin bo'ladi. Qo'chqor bo'lar qo'zining manglaylari do'ng bo'lar – bu o'zbek xalqida "Bo'lar bola boshidan" degan maqolning mazmuniga teng keladi. Demak, "insonning biror yutug'i yoki kelgusida qo'lga kiritadigan muvaffaqiyatlari yoshligidanoq ma'lum bo'ladi" degan aqida yotibdi maqolning negizida. Xalq hayvon timsoli orqali inson haqida xulosa qilyapti. "Adam bolar jigittin' etek-jen'i ken' bolar" – demak, bu yerda kiyim vositasida insondagi bag'rikenglik g'oyasi targ'ib qilingan. Etak– yengi keng bo'lar, ya'ni kiyim etagi va yengining keng bo'lishi tashqi ifoda, lekin botinda yigitning bag'rikengligi, ko'ngli kengligi, oqko'ngilligi, birovga yomonlik qilmasligi nazarda tutilyapti. Demak bu bilan, insonning yaxshi xulq-atvori uni kelajakda yuksak natijalarga erishtiradi, – degan mantiqiy xulosa aks etgan.

Ko'p tu'yeli kisi qirg'a shig'adi,

Bir tu'yeli kisi nesine shig'adi/ Ko'p tuyali kishi qirga chiqadi,

Bir tuyali kishi nimasiga chiqadi.

Yuqoridagi maqolda tuya bu inson faoliyatidagi qurollar, imkoniyatlar ma'nosini ifodalash vositasi bo'lgan. Agar insonning ko'p tuyasi bo'lsa, u qirga chiqa oladi, degan xulosaga kelinadi, ya'ni bu yerda faqatgina insonning harakati emas, uning maqsadiga eltuvchi vositalari, qurollari, imkoniyatlari ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. "Bir tu'yeli kisi nesine shig'adi" – satrida esa bir tuyali kishining imkoniyati ko'p narsaga yetmaydi, degan

xulosaga kelingan. Bu yerda “yetti o‘lchab, bir kesish” – ma’lum bir faoliyatni amalga oshirish uchun mulohazali, o‘ylab ish qilish kerak, imkoniyatlarini oldindan ko‘ra bilishi kerak, degan g‘oya aks etgan. Bu maqolda ko‘p tuyaga ega bo‘lmay turib, baland qirga, ya’ni katta maqsadga erishishni, chiqishni orzu qilib o‘tirmang, degan bir ma’no mujassam ekan. Ayrim hollarda shu maqolga amal qilinmagan vaziyatlarga duch kelamiz. Mablag‘ yo‘q holda uy qurishni boshlab, eski uyni buzib, yangi imorati oxiriga yetmasdan, uysiz qolgan odamlarning holati qayd etilgan maqolning mazmuniga hamohangdir. Odamlarga hayotlarini oldindan rejalashtirish, aqidaga asoslanib, ma’lum bir imkoniyatiga qarab yondashish targ‘ib qilinyapti. O‘zbek xalqidagi “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat” degan maqolda ham xuddi shu mazmun aks etgan. Demak, ko‘rpa kalta bo‘lib, oyoqni boricha uzatish kerak emas, ko‘rpaqa moslash lozim, degan masala qo‘yilyapti. Demak, har kim o‘zining imkoniyatidan, qobiliyatidan, qurol-yarog‘idan kelib chiqib yondashishi kerak, degan g‘oya targ‘ib qilinyapti.

Siyirdin’ shaqina ursan’,

Tuyog‘i zirqiraydi/ Sigirning shoxiga ursang,
Tuyog‘i zirqiraydi.

O‘zbek xalqida bu maqol ko‘proq ho‘kiz variantida uchraydi, ya’ni *ho‘kizning shoxiga ursang tuyog‘i zirqiraydi* kabi ko‘rinishda. Demak, tashqi tomondan qaraganda xuddi shox boshqa joyda, tuyog‘ boshqa joyda, lekin bu yerda bir butunlik targ‘ib qilinyapti. Ya’niki ana shu shox ham, tuyog‘ ham ho‘kizga yoki sigirga tegishli bo‘lganligi uchun bir-biriga aloqadorlik, bir-biriga bog‘liklik, tizimlilik aks ettirilgan.

Qusda su‘t joq,

Jilqida o‘t joq/ Qushda sut yo‘q,
Yilqida o‘t yo‘q.

Bu maqolda qushlarda sut bo‘lmasligi va yilqi, otlarda o‘t pufagi bo‘lmasligi haqida umumiy ma’lumot berilgan. Bundan kelib chiqadiki, qushlar sut emizuvchilar tarkibiga kirmaydi. Lekin shunday bo‘lsa ham, o‘zi kichkina bo‘la turib, sut emizuvchilar guruhiga kiradigan ayrim qushlar ham bor. Masalan, ko‘rchapalakda ham qushlik belgisi, ham sut emizuvchilik xususiyati bor. Lekin aksariyat qushlarni olib qarasangiz, sut emizuvchilik xususiyati yo‘q. Shuning uchun ham qushda sut bo‘lmasligi haqida xulosalangan. Endi “Jilqida o‘t joq” degan o‘rinda esa otlarning organizmida o‘t pufagi bo‘lmasligi haqidagi so‘z borgan. Bu maqolni xulosalaydigan bo‘lsak, *qushdan sut, otdan o‘t pufagini talab qilmaslik*, ya’ni “aslida yo‘q narsani so‘rab, qidirmaslik” mazmuni aks etgan.

Arg‘umaq attin quyrig‘i,

Birde jipek, birde qil / Arg‘umoq otning quyrug‘i,
Birda ipak, birda qil.

Bu maqolda *arg‘umoq* kuchli, chopqir, ko‘rinishi ham chiroyli bo‘lgan otning bir turi sifatida qo‘llangan. *Arg‘umoq* otning quyrug‘i, ya’ni bu yerda *quyruq* qoraqalpoq tilida “dum” ma’nosida qo‘llanyapti. O‘zbek tilida *quyruq* dum ma’nosidan farqli ravishda ishlatiladi. Masalan, qo‘yning dumbasiga nisbatan quyruq deb ishlatiladi, qushlarning dumiga nisbatan esa *quyruq* deb ishlatilmaydi. Demak, o‘zbek tilida *quyruq* so‘zining ma’nosi toraygan, qoraqalpoq tilida esa keng ma’noda ishlatiladi. Bundan tashqari *otning quyrug‘i birda ipak, birda qil* bo‘lishi haqida so‘z yuritilganda, dumidagi tolalarga e’tibor qaratilyapti. Ipak deb dumning pishiqligi ifodalanayotgan bo‘lsa, qilligida esa ingichkaligi tasvirlanyapti. Maqol ma’lum davrlarda ajdodlarimizning otning dumidagi tolalardan qattiq, pishiq ip sifatida foydalanganliklaridan dalolat beradi, ya’ni otning dumidagi tolalar ijtimoiy voqelikda muhim o‘rin tutgani haqida

axborot berilmoqda. Bu maqollar shunchaki ma'lumot berishga xizmat qilmaydi, maqollar da'vat etadi, maqollar muhim axborot beradi, maqollar muhim g'oyani aks ettiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maqollar – bu xalq tafakkurining metaforik ko'zgusidir. Ayniqsa, zoonim timsollar asosidagi maqollar orqali xalqning hayvonot olami bilan bog'liq chuqur kuzatishlari, ijtimoiy fikri va hayotiy tajribasi ifoda etiladi. Zoonimlar inson xarakterini tavsiflovchi timsollar sifatida ta'sirchan xususiyatga ega [Metyakubov, 1996]. O'zbek va qoraqalpoq maqollaridagi “ho'kiz”, “tuya”, “ot”, “sigir”, “qo'chqor” kabi timsollar xalqning dehqonchilik, chorvachilik hayoti, qadimiy kasblari va mehnat tarzi haqida muhim axborot beradi. Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, zoonim frazemalar xalqning nafaqat yashash tarzini, balki ma'naviy-axloqiy qarashlarini, ichki dunyoqarashini ham ifodalaydi. Bunday maqollar zamonaviy yosh avlodga qadriyatlar ildizini anglash, tilning ko'chma vositalari orqali hayot haqiqatini tushunish imkonini beradi.

Zoonimlar xalqlarning milliy qadriyat manzarasini aks ettiruvchi eng yorqin obrazlar sifatida talqin etilgan [Kurajova, 167].

Ilmiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, paremiologiya doirasida zoonim frazemalarni chuqur tahlil qilish bizni milliy tilimizning boyligi, xalq tafakkurining serqatlamligi bilan tanishtiradi. Kelajakda bu mavzu frazeologiya, madaniyatshunoslik va til tarixini o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun muhim yo'nalish bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

REFERENCES

1. Дмитриева О. А. Культурно-языковые характеристики пословиц и афоризмов (на материале французского и русского языков). Дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. –186 с.
2. Зарипов Б. Зоонимларнинг бадий санъат ҳосил қилишдаги иштироки (Алишер Навоий асарлари асосида). Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. –Тошкент, 2002. – 128 б.
3. Куражова И.В. Имена животных как отражении ценностной картины мира в английской лингвокультуре. Дисс. ...канд. филол. наук. –Иваново, 2007. –167 с.
4. Мэтякубов Дж. Характеристика человека зоонимами в разносистемных языках: на материале английского и узбекского языков. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1996. –173 с.
5. Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. –Тошкент, 2017. –128 б.